Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haykaltaroshlik san'ati bilan korrupsiyaga qarshi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish 802
Toshpulatova Fotima Saydullayevna

Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari 805
Abdulvohidov Turg'unali Abduqaxxor o'g'li

Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri 808
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi

Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari 811
Amonova Madina Furkatovna

Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya 814
Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna

PISA 2025 tadqiqotlariga doir tajriba sinov ishlari (O'zbekiston misolida) 817
Doniyorov Muxiddin Normamatovich

Maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanish va tahlil qilish 820
Eshmuratova Gauxar Maxsudovna

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish 824
Matjanova Gulzada Annabayevna

Al-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 828
Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi

Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish 832
Rahmonova Zamiraxon Yakubovna

Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi 835
Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish 838
Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboxon Botiraliyevna

Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari 843
Ergasheva Mahbuba

Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность 846
Уринбаев Исроилжон Кадиржонович

Pedagogik faoliyatda kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar 851
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi

Talabalarda milliy tarbiya va axloqiy immunitet tushunchalarini rivojlantirishning milliy-tarixiy kontextual jihatlari 855
Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich, Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna

TRIZ texnologiyasi – uchinchi renessans poydevori 860
Yusupova Gulshiraxan Zinatdinovna

Yoshlar mafkurasini shakllantirishda hozirgi zamon ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning o'rni 865
Xonimov Sharofiddin Bahodirovich

O'zbek tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va xususiyatlari 870
Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna

Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari tarixidan 874
Abduraimova Charos Nodir qizi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini boshqaruv madaniyatini shakllantirish omillari 878
Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna

Gandbol sport turini umumiy o'rta ta'lim maktablarida rivojlantirish 881
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li, Abduraxmonov Saydillo Xakimovich

PIRLS xalqaro tadqiqotida matn, topshiriqlar va baholash mezonlari 884
Amonova Aziza Saydulloyevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari 888
Amonova Madina Furkatovna

Morfonologiya va uni umumiy ta'lim tizimida o'qitish 891
Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna

Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi 894
Azimov Ibragimjon Toshpo'latovich, Mirzaboev Timur Bisenboy o'g'li, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va umumiy tuzilishi 898
B. R. Xudoyberdiyev

Cognitive Justification of Humor in Modern Linguistics 901
Bektoshev Mubashirkhon Odilbek Ugli

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish 905
Botirova Lobar Kamolovna

Toshkent viloyatida rekreasion faoliyat rivojlanishining asosiy muammolari 910
Djurayeva Lobar Vaxitovna

Didactic Features of Using E-Portfolios in Continuing Professional Development of Teachers 915
Erkaboyeva Saodathon

O'quvchilar xulqida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning korreksiyalashga xizmat qiladigan manbalar 918
F. A. Choriyeva

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilida lug'at boyligini oshirishning samarali usullari 921
G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi

Kitobxon badiiy adabiyotni qanday anglaydi 924
Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi

Zamonaviy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari 928
Ibragimova Dilnoza Rashid qizi

The Pedagogical Role of the Community in Promoting Abilities of Students 931
Isabayeva Dilfuza Komiljonovna

Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni 934
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ingliz tili darslarida interaktiv media vositalarining ta'siri 938
Ismoilova Zarifa Abduqaxxorovna

O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi 942
Jabborova Shahodat Ibrohim qizi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida deontologik qadriyatlar va professional etikani rivojlantirish 945
Kalandarova Fazilat Toxirovna

Voleybolda maxsus chidamlilikni rivojlantirishning umumiy tushunchalari 948
Karimova Gulhayo Botirjon qizi

The Portrait of the Image of Manfred in the Translation of J.G. Byron's Poem "Manfred" 953
Kurbonov Parda Akhmedovich

Suv aralashmasi temperaturasini aniqlash 958
Mamatova Go'zaloy Jo'ramirzayevna, Mashrabboyeva Mubina Bobomurod qizi, Abdurahmonova Gulasal Avazbek qizi

Yosh bokschilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo'llari 961
Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o'g'li

Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari 965
Mamura Tadjibayeva

Adabiy ta'limda scamper metodining qo'llanilishi 969
Marjona Toshpulatova

Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari 974
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna

Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari .. 977
Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi

"Jasper Jones" as New Life Given to The Novel "To Kill a Mockingbird" 982
Nargiza Akhrorova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari 985
Oqnazarov To'lqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon

Matematika darslarida kombinatorika elementlari va mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodikasi . 990
Panjiyeva Shahlo Zulfixor qizi

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar 993
Raximova Charosxon Baxromjon qizi

Kurash texnikasi va taktikasini bolalarga o'rgatish yo'llari 996
Raxmonov Dilmurod Nusratovich

Pedagogical Technologies in Modern Education: Trends and Applications 999
Salimova Bakhora Khurbanovna

Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari 1003
Sanaqulov Sardor Istamqulovich

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlari mavzusini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish 1006
Shomurotova Sevinchoy San'at qizi

Kredit-modul tizimida texnologik fanlar o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli avtomatlashtirilgan o'quv modullari yaratish imkoniyatlari 1009
Turdikulova Sevara Abdumo'minovna

Tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va murabbiylik an'analarining uzviyligi 1012
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich

O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi 1016
Umarova Iroda Shavkatjon qizi

Pedagogical Situation of Developing Students' Critical Thinking 1020
Usmonova Oydin Sherali kizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning didaktik omillari 1024
Xolmo'minova Bahora Abdujalolovna

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik tamoyillar. 1027
Xurshidjon Raximov Xursandjon o'g'li

O'zbekistonda steam ta'lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari 1031
Yaxshiboyeva Sitora Toshpulat qizi

Oliy ta'limda talabalar ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarning o'rni va imkoniyatlari 1034
Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich

Talabalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir olib borilayotgan ishlarning joriy holati 1037
Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi

Ingliz tili fanini o'qitishda (PBL) loyiha va muammoga asoslangan metodika: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot 1040
Zarina Tasheva Djumayevna

Актуальные проблемы изучения русского языка 1043
Абдуллаева Нигора Курбановна

Применение цифровых средств обучения в курсе "Окружающий мир" для изучения народной экологии в начальной школе 1046
Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи

Tasviriy san'at darslarini o'qitishga innovatsion yondashuv 1049
N. P. Kaipov

Важность разработки стратегических программ развития страны 1052
Каримова Нуржахон Олим кизи

Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi diagnostikasining kvalimetrik texnologiyalari 1056
Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna

Анализ элективных курсов по информатике в зарубежных странах и их аналогов в системе образования Узбекистана 1060
Урынбаева Азада Бахадыровна

Multimedia texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi 1064
Raximova Dilfuza Abduraxmonovna

Talabalarning kiberpedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti 1068
Bekchonova Shoira Bazarbayevna

Ta'limda IOT&AI texnologiyalari imkoniyatlari 1072
Badalxodjayev To'lqinjon Ikramiddinovich

Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodlari 1076
Eshturdiyev Abbos Erkin o'g'li

Yosh basketbolchilarni umumiy chidamliligini rivojlantirish bilan bog'liq muammo va yechimlar 1079
Mamatov Pahlavon Urayimjon o'g'li

O'zbek oilalarida o'smir yigitlarni axloqiy tarbiyalashda etnopedagogika elementlaridan foydalanish 1082
Nuradinov Furqatjon Rashidovich, Eshpo'latov Bekzod Muxiddin o'g'li

Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini takomillashtirish 1085
Otamurodova Yaxshigul Farxodovna

Maktab ta'lim jarayonida o'quvchilarning tayanch kompetentlik darajasini baholash 1088
Sabitova Kamola Furkatovna

So'z va san'at: adabiyot darslarida san'at namunalaridan foydalanish 1094
Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li

Bo'lajak logopedlarni korreksion jarayonlarini tizimli tahlil qilishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish (DENS-terapiya misolida) 1098
Toshturdiyeva Zoyira Dusmurod kizi

O'rta va uzoq masofalarga yugurish texnikasini o'rgatish usullari 1101
To'xtanazarov Qahramon Abduvahobovich

Futbol o'yinida to'p olib yurish texnikasi va taktikasi asoslari 1105
Tursunqulov Mansur Mahmud o'g'li

Sport mashg'ulotlari jarayonida sportchilarni milliy harakatli o'yinlar vositasida jismoniy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi(qo'l to'pi sport turi misolida) 1109
Xayitboyev Nabijon Sheraliyevich

Глобализация, современность, узбекский язык и национальная идентичность 1113
Думахонова Шодихон Искандар кизи

Talabalarning kasbiy tayyorligida raqamli savodxonlikning ta'siri 1118
Orunbayeva Uminiso Sharabidinovna

Методические рекомендации для учителей начальных классов по использованию икт на уроках математики 1123
Тухтаева Шахноза Маратовна

Ona tili ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyalar ustida ishlash 1127
Umurova Ruxshona Isomiddin qizi

Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixik rivojlanishida korreksiya va kompensatsiya 1130
Ergasheva Fayoza Bahodir qizi

Индивидуальный подход в управлении интенсивностью и нормами нагрузки на этапе предподготовки у бегунов на средние дистанции 1134
Ғофуров Омадбек Ғайратжон ўғли

Yosh bokschilarni musobaqa faoliyatining obektiv malumotlar 1138
Qon'irbayev Dastan

O'quvchilar kognitiv faolligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos jihatlar 1142
Panjiyev Maqsud

Methods and Techniques for Teaching English Literature 1146
Abdramanova Dilbar Purxanatdin qizi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarining zamonaviy ta'lim texnologiyalari 1151
Ikramov Amirbek Aminovich, Xudaybergenov Umidbek Yusufbayevich

Musiqa o'qituvchilarining pedagogik mahorati 1154
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

Badiiy idrok va estetik tarbiyada didaktik o'yinlarning ahamiyati 1157
Salimova Ganjina Salomovna

Психолого-педагогические условия эффективного использования интерактивных игровых методов 1159
Хафизова Машхура Аминовна

Особенности использования метода проектов в процессе дошкольного образования 1163
Эшпулатов Шакир Набиевич, Пардаева Гульчехра Сафаровна



O'QUVCHILAR KOGNITIV FAOLLIGINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI O'ZIGA XOS JIHATLAR

Panjiyev Maqsud
Qashqadaryo viloyati maktabgacha va
maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning kognitiv faolligini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinadi. Psixologik, pedagogik va ijtimoiy muhit omillarining o'zaro ta'siri, metakognitiv strategiyalar, o'qitish texnologiyalari va motivatsiya jihatlari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va bilishga qiziqishi qanday rivojlanishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida ta'lim jarayonini optimallashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv faollik, o'quvchi, metakognitiv strategiya, motivatsiya, interfaol ta'lim, fikrlash, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

Abstract: This article presents a systematic analysis of the factors influencing the development of students' cognitive activity. It explores psychological, pedagogical, and social dimensions, as well as the role of metacognitive strategies, teaching technologies, and motivation in fostering independent thinking and intellectual engagement. Based on the research findings, recommendations are proposed to improve the effectiveness of the educational process.

Key words: cognitive activity, student, metacognitive strategy, motivation, interactive learning, thinking, learner-centered approach.

Аннотация: В данной статье системно анализируются факторы, влияющие на развитие когнитивной активности учащихся. Раскрываются психологические, педагогические и социальные аспекты, а также роль метакогнитивных стратегий, образовательных технологий и мотивации в формировании самостоятельного мышления и познавательной активности школьников. На основе результатов исследования предложены рекомендации по совершенствованию образовательного процесса.

Ключевые слова: когнитивная активность, ученик, метакогнитивные стратегии, мотивация, интерактивное обучение, мышление, личностно-ориентированный подход.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy e'tibori o'quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularning mustaqil ravishda bilim izlash, uni tahlil qilish va amaliyotda qo'llash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Bunday yondashuvda kognitiv faollik, ya'ni fikrlash faoliyati, idrok qilish darajasi, muammolarni mustaqil hal etish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va ularni ijodiy tarzda qo'llay olish layoqati o'quvchi rivojlanishining muhim mezoniga aylanadi. Ayniqsa, axborot oqimi yildan-yilga tezlashib borayotgan hozirgi davrda o'quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida ko'rilmoqda.

Kognitiv faollikni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar keng ko'lamli bo'lib, ularga o'quvchining psixologik va shaxsiy fazilatlari, ta'lim muhiti sifati, pedagogning kasbiy faoliyati, darslik va o'quv-uslubiy vositalar, zamonaviy metodik yondashuvlar hamda oilaviy tarbiyaning sifati kiradi. Har bir o'quvchining individual intellektual darajasi, e'tibor va xotira salohiyati turlicha bo'lib, bu ularning o'quv jarayonidagi faollik darajasini belgilaydi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada o'quvchilar kognitiv faolligining rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar kompleks tahlil qilinadi. Bundan maqsad – ta'lim muhitini yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarning intellektual faolligini oshirish va ularda chuqur, tizimli bilim asoslarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitiv faollik masalasi ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi doirasida keng tadqiq etilayotgan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. A. V. Brushlinskiy kognitiv faoliyatni o'quvchining bilish jarayonlaridagi tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi va muammoni yechishga yo'naltirilgan aqliy harakati sifatida talqin etadi. Uning fikricha, bu faollikning shakllanishi o'quv muhitining sifatiga va pedagogik yondashuvlarning mosligiga bevosita bog'liq. Shuningdek, D. B. Elkonin tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari o'quvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. U o'quvchilarni tafakkur orqali faol harakatga undaydigan mashg'ulotlarni ta'lim tizimining asosi sifatida ko'radi.

Shveytsariyalik tadqiqotchi J. Piaje bolalarning kognitiv rivojlanishini bosqichma-bosqich qarash orqali izohlaydi. Uning strukturalizmga asoslangan nazariyasida aqliy operatsiyalar tizimi orqali bilimni idrok qilish va o'zlashtirish bosqichlari kognitiv faollik darajasini belgilaydi. Vygotskiy esa "yaqin rivojlanish zonasi" kontseptsiyasi orqali o'quvchining real bilim darajasi bilan potentsial imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni aniqlash orqali kognitiv faollikni rivojlantirishda o'qituvchining rolini birinchi o'ringa qo'yadi.

O'zbekistonlik olimlardan I. A. Muxamedov o'z tadqiqotlarida maktab yoshidagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishini ijtimoiy-pedagogik omillar bilan bog'liq holda tahlil qilgan. U kognitiv faollikni rivojlantirishda o'yin texnologiyalari, interfaol metodlar va vizual vositalarning o'rni katta ekanligini amaliy misollar orqali asoslab bergan. Shuningdek, S. A. Karimova tomonidan olib borilgan izlanishlarda kognitiv faollikni o'quvchilar shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilgan individual yondashuvlar orqali shakllantirish taklif qilingan.

Yana bir muhim yondashuv sifatida I. S. Yakimanskayaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi e'tiborga loyiq. U o'quvchilarni o'z bilimlarini anglashga, bilim ustida nazorat o'rnatishga va tanqidiy fikrlashga o'rgatishni kognitiv faollikning tayanch nuqtalari sifatida baholaydi. Bu yondashuvlar ta'limda subyekt-subyekt munosabatini ilgari suradi, bu esa mustaqil fikr yuritish va faol bilim olishni qo'llab-quvvatlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o'quvchilarning kognitiv faolligini aniqlash maqsadida diagnostik testlar, kuzatuv jadvallari va yarim strukturalashtirilgan suhbatlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslash usuli hamda statistik umumlashtirish orqali tahlil qilindi. Metodlar o'quvchilarning individual farqlarini aniqlash va ta'limdagi samaradorlikni baholashga yo'naltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv faollik o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'rganilgan bilimni yangi vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarining uyg'unlashuvi sifatida ta'riflanadi. Ta'lim jarayonida bu ko'rsatkichning yuqori darajada shakllanishi nafaqat o'quvchilarning bilim sifati, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan o'quvchilarning kognitiv faolligiga ta'sir etuvchi o'ziga xos omillarni aniqlash va ularni chuqur o'rganish zamonaviy ta'lim strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Birinchi navbatda, kognitiv faollikka ta'sir ko'rsatuvchi individual-psixologik omillarni ko'rib chiqish zarur. Har bir o'quvchi o'zining temperamenti, aqliy rivojlanish darajasi, motivatsiya turi, xotira hajmi va diqqat barqarorligi kabi ko'rsatkichlari bilan farqlanadi. Aynan shu xususiyatlar ularning bilishga intilishi va tafakkur jarayonidagi faolligini belgilaydi. Masalan, yuqori darajadagi ichki motivatsiyaga ega o'quvchilar ko'proq izlanishga moyil bo'ladi, mustaqil ravishda muammolarni yechishga urinadi va o'rganishga ijobiy munosabat bildiradi. Bunday holatlarda o'qituvchining vazifasi – o'quvchining bu ichki kuchini yo'naltirish va mos pedagogik yondashuv orqali rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Shuningdek, kognitiv faollikka ijtimoiy muhit omillari ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oila muhiti, maktabdagi psixologik iqlim, tengdoshlar bilan muloqot sifati va pedagogik uslubning mosligi o'quvchining fikrlash faoliyatini rag'batlantirishi yoki, aksincha, susaytirishi mumkin. Misol uchun, qo'llab-quvvatlovchi va o'zaro hurmatga asoslangan sinf muhiti o'quvchining fikrini ochiq bayon etishga, savol berishga va mustaqil fikrlashga undaydi. Aksincha, qat'iy nazoratga asoslangan va faqat passiv bilim qabul qilishga yo'naltirilgan tizimlarda esa o'quvchilarda fikrlash faolligi cheklanishi mumkin.

Pedagogik omillar orasida esa o'qituvchining bilim berish uslubi, darsdagi interfaollik darajasi, topshiriqlarning murakkablik darajasi va ularning o'quvchilarning rivojlanish zonasi bilan mosligi alohida ahamiyatga ega. Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv topshiriqlari nafaqat mavjud bilimga tayanishi, balki o'quvchining potentsial intellektual imkoniyatlarini ham ishga solishi zarur. Aks holda, topshiriq haddan ortiq sodda bo'lsa – zerikish, murakkab

bo‘lsa – tushkunlik yuzaga keladi. Har ikkisi ham kognitiv faollikni pasaytiradi. Shu bois, topshiriqlar differensial yondashuv asosida, o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilishi zarur.

Kognitiv faollikni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Interaktiv doskalar, vizual modellar, raqamli simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va masofaviy o‘quv platformalarining qo‘llanilishi orqali o‘quvchilarning sezgi organlari ko‘proq jalb qilinadi, ular bilishga faolroq kirishadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan foydalanish faqat texnik vositalar bilan cheklanmasligi, balki ulardan samarali pedagogik maqsadlar yo‘lida foydalanish strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Aks holda, texnologik vositalar o‘quvchining diqqatini asosiy maqsaddan chalg‘itishi, faollikni emas, balki faqat tashqi bandlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Bundan tashqari, kognitiv faollikni oshirishda metakognitiv strategiyalarni o‘rgatish ham muhim. O‘quvchiga faqat bilim berish emas, balki qanday o‘rganishni o‘rgatish – bu zamonaviy ta’limning asosiy tamoyillaridan biridir. Metakognitiv yondashuvlar, ya’ni o‘z fikrlash jarayonini anglash, nazorat qilish va tartibga solish qobiliyati o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi. Masalan, “men qanday qilib bu masalani hal qilyapman?”, “nimani tushunmadim?”, “yana qanday strategiyadan foydalanishim mumkin?” kabi savollar orqali o‘quvchi o‘z o‘qish jarayonini boshqarishni o‘rganadi.

Kognitiv faollikni rivojlantirishda ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlar yaratish ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchining faolligi odatda yangi, nostandart muammolar bilan to‘qnashganda ortadi. Shu bois, dars jarayoniga real hayotiy vaziyatlar, qiziqarli topqirlik talab qiluvchi topshiriqlar, loyiha asosidagi faoliyatlarni kiritish natijasida o‘quvchi o‘z bilimini mustaqil ravishda izlay boshlaydi. Bu esa faollikni nafaqat oshiradi, balki barqarorlashtiradi. Masalan, “Nima uchun yomg‘ir bulutdan yog‘adi?”, “Agar Yerda tortish kuchi bo‘lmasa nima bo‘lardi?” kabi ochiq savollar o‘quvchini izlanishga undaydi, ayni paytda tafakkur doirasini kengaytiradi.

Yana bir muhim jihat – bu baholash tizimi. An’anaviy test va reyting asosidagi baholash o‘quvchini ko‘proq natijaga yo‘naltiradi, ammo jarayonni e’tibordan chetda qoldiradi. Kognitiv faollik esa aynan o‘rganish jarayonida yuzaga chiqadi. Shu bois, formativen baholash (jarayon davomida fikr bildirish, tavsiya berish, xatoni ko‘rsatish), o‘zini-o‘zi baholash, hamkorlikda baholash kabi yondashuvlar orqali o‘quvchi o‘z ustida ishlashga, fikrini asoslashga va bilimni mustahkamlashga intiladi. Bu jarayonda o‘quvchining faolligi rag‘batlantiriladi, noto‘g‘ri javoblar jazolanmasdan, tahlil qilinadi va takomillashishga yo‘naltiriladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqorida sanab o‘tilgan omillar birgalikda faoliyat ko‘rsatgandagina kognitiv faollik barqaror rivojlanadi. Faqatgina individual psixologik xususiyatlar emas, balki ta’lim muhiti, dars strukturasi, o‘qituvchining uslubi va texnologik vositalar uyg‘unligi natijasida ijobiy natijalarga erishish mumkin. O‘quvchi dars jarayonida o‘zini subyekt sifatida his qilsa, ya’ni fikr bildirishi, tanlashi, savol berishi, xatoga yo‘l qo‘yishi va bu jarayonlarda faol ishtirok etishi uchun imkoniyat mavjud bo‘lsa, kognitiv faollik kuchayadi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi, bilimlarning chuqur va izchil shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy pedagogika kognitiv faollikni rivojlantirishni faqatgina o‘quv dasturini o‘zlashtirish emas, balki shaxsiy intellektual salohiyatni ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida ko‘radi. Ta’lim strategiyalari o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantirishi zarur. Buning uchun esa kompleks yondashuv, uzluksiz monitoring, motivatsion qo‘llab-quvvatlash va muvozanatli o‘quv yondashuvlar majmuasi talab etiladi. Shundagina o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki fikrlash madaniyati, mustaqil tahlil qilish qobiliyati va umuman intellektual mustahkamlik rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish ta’lim jarayonining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda shaxsiy-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, pedagogik yondashuvlar va texnologik imkoniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashiga, tahlil qilishiga va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali barqaror intellektual rivojlanishga erishish mumkin. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos fikrlash darajasi va o‘rganish sur’atlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan ta’lim muhiti yaratish, shuningdek, metakognitiv strategiyalarni tatbiq etish kognitiv faollikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun pedagoglar tayyorlov tizimida kognitiv psixologiya asoslari chuqur o‘rgatilishi, dars jarayoniga muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar va ochiq savollar kiritilishi, baholash mezonlari esa jarayonni tahlil qilishga yo‘naltirilgan shakllarda takomillashtirilishi zarur. O‘quvchilarning fikrlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi raqamli platformalar ishlab chiqilishi, ayni paytda ta’limda subyekt-subyekt yondashuvini mustahkamlashga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar tizimi shakllantirilishi kerak. Mazkur takliflar nafaqat o‘quvchilarning bilim sifatini oshiradi, balki ularni mustaqil, faol va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ataxo'jayeva, S. (2023). Emperial Foundations Of The Study English Language Teachers. GulDU axborotnomasi. – 2023.
2. Atakhujaeva, S. (2023). Constructions (Models) Of Social Intelligence In Future English Language Teachers. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence.
3. Shaxlo Anvarovna Ataxo'Jayeva (2023). O'qituvchilarining sotsiolingvistik xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 111-115.
4. Umirovich, A. O., & Anvarovna, A. S. (2023). Views of thinkers on issues of family and family relations. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 508-511.
5. А.В. Брушлинский. Психология субъекта. – М.: Наука, 1984. – 256 с.
6. Д.Б. Эльконин. Психология обучения младших школьников. – М.: Педагогика, 1974. – 192 с.
7. Л.С. Выготский. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
8. И.С. Якиманская. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Сентябрь, 2000. – 160 с.
9. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950. – 182 p.
10. З.И. Калмыкова. Самостоятельная познавательная деятельность школьников. – М.: Педагогика, 1981. – 208 с.
11. В.В. Давыдов. Теория развивающего обучения. – М.: Интор, 1996. – 384 с.
12. Н.Д. Никандров. Инновационные процессы в образовании. – М.: Педагогическое обозрение, 2001. – 272 с.
13. М.В. Кларин. Инновации в мировой педагогике. – М.: Академия, 2010. – 240 с.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.